

**LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI ISHLAB CHIQISH
VA MUALLIFLIK NAZORATINI YURITISH UCHUN
7 - SONLI SHARTNOMA**

Toshkent sh.

2022-yil "10" noyabr

"Ohangaron-Dalvarzin" ITB keyingi o'rnlarda "**BUYURTMAKI**" deb ataladi, nomidan **Nizom** asosida harakatlanuvchi, **Sh.To'xtamishev**, bir tomondan va "**INNOVATIVE-PROEKT**" МЧЖ keyingi o'rnlarda "**Loyihachi**" deb ataladi, nomidan **Nizom** asosida harakatlanuvchi direktor **A.Amanbaev** boshqa tomondan, bиргаликда "tomonlar" va har biri alohida "tomon" deb ataladi, mazkur shartnomani (keyingi o'rnlarda "shartnoma" deb yuritiladi) tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1. Mazkur shartnoma tomonlar o'ttasida "**Kultepa RYU 3-4**", "**Madaniyat R-5**", "**Eski yordam**", "**TCHQK**", "**Yuldosh RS-2**", "**Tariqchi RS-1**" kanallari bo'yicha ta'mirlash-tiklash" bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarni (loyiha yechimlari, mahalliy smeta hujjatlari, yig'ma loyiha-smeta hujjatlari) ishlab chiqish va qo'shimcha ishlarni, shuningdek, mualliflik nazoratini amalga oshirish uchun tuzilgan.
- 1.2. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlarni Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqqa va yoki nuqson dalolatnomasiga asosan ishlab chiqilishini kafolatlaydi.
- 1.3. Loyihachi ushbu shartnoma imzolangandan so'ng darhol shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarini bajarishga kirishadi va taqvim rejasiga muvofiq loyiha-smeta hujjatlarni ishlab chiqishni ta'minlaydi.
- 1.4. Shartnoma b'yicha bajariladigan ishlar muddati – **"30" kun**.

II. SHARTNOMA QIYMATI VA HISOBBLASH TARTIBI

- 2.1. Loyiha va mualliflik nazoratini amalga oshirish uchun shartnomaning umumiyligi qiymati **QQS siz 52 000 000 (ellik ikki million)** so'mni tashkil etadi.
- 2.2. Shartnoma ikki tomonlama imzolangandan so'ng 5 ish kun ichida loyhachiga bajariladigan ishlar qiymatidan 30 % miqdorida – **15 600 000 (o'n besh million olti yuz ming)** so'm oldindan to'lovni o'tkazib beradi. Ish natijasini topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan so'ng, oldindan to'langan pulni ham hisobga olgan holda shartnomaning bajariladigan ishlar qiymatidan – **70%** moliyalashtirish amalga oshiriladi. Avans va joriy moliyalashtirish belgilangan maqsadlar uchun mablag'lar ajratilgandan so'ng amalga oshiriladi hamda mablag'larning o'z vaqtida ajratilmaganligi bilan bog'liq kechikish uchun Buyurtmachi javobgar hisoblanmaydi.
- 2.3. Loyihachi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi natijalariga ko'ra, ushbu shartnomaning qiymati qayta ko'rib chiqilishi kerak bo'lsa, ushbu xizmatlarga sarflanadigan barcha xarajatlar Loyihachi tomonidan qoplanadi.

III. ISHLARNI BAJARISH MUDDATI.

- 3.1. Shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan taqvim rejasiga muvofiq amalga oshiriladi (1-Ilova).
- 3.2. Texnik topshiriq va nuqson dalolatnomasi berilmagan taqdirda, loyhachchi o'z majburiyatlarini bajarishga kirishmaslik huquqiga ega hamda ishni boshlash va tugatish muddatlari mutanosib davrga o'zgaradi.
- 3.3. Tomonlarning kelishuviga binoan, dastlabki ma'lumotlar o'zgarib, bu o'zgarishlar ish hajmining jiddiy oshishiga olib kelsa, ishni bajarish muddati uzaytirilishi mumkin.

IV. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

- 4.1. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:
 - Texnik topshiriqni loyhachiga taqdim etish;
 - Shartnoma shartlariga muvofiq to'lovlarini amalga oshirish;
 - Loyihachi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlardan faqat shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish;
 - Tegishli davlat organlari bilan loyiha-smeta hujjatlarni kelishishda Loyihachi bilan bирgalikda ishtiroy etish.
- 4.2. Loyihachi tomonidan hisob-kitob uchun yuklamalar o'z vaqtida taqdim etilishi sharti bilan Buyurtmachi unga belgilangan muddatlarda loyihlashtirish ishlarni boshlashi uchun dastlabki ma'lumotlarni taqdim etadi,
- 4.3. Loyiha-smeta hujjatlari (loyiha yechimlari, mahalliy smeta hujjatlari, yig'ma loyiha-smeta hujjatlari) olingan kundan boshlab 10 kun ichida Buyurtmachi qabul qilish dalolatnomasini imzolashi lozim.
- 4.4. "Buyurtmachi" loyiha-smeta hujjatlarini qabul qilingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmasdan ekspertiza organlariga yuboradi.

V. LOYIHACHINING VAZIFALARI.

- 5.1. Loyihachi quyidagilarga majbur:
 - Ushbu shartnomaning umumiyligi doirasida, Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriq va dastlabki ma'lumotlar asosida mazkur shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan barcha ishlarni bajarish;
 - Shartnoma imzolangandan so'ng 3 kun ichida texnik topshiriqlarni olish uchun yuklamalarni taqdim etish;
 - Loyiha-smeta hujjatlarini barcha manfaatdor tashkilotlar, shuningdek, qo'shimcha talablar taqdim etilganda davlat nazorati organlari bilan kelishib berish;
 - Buyurtmachining rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazmaslik;

- Mualliflik nazoratini amalga oshirish va qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish jarayonida loyiha-smeta hujjatlariga amal qilinishini nazorat qilish;
- Buyruq asosida mualliflik nazoratini amalga oshiruvchi hamda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish jarayonida loyiha-smeta hujjatlariga amal qilinishini nazorat qiluvchi vakilini belgilash va uning Buyurtmachi texnik nazoratchisi bilan o'zaro kelishilgan jadvalda belgilangan kun va vaqtida obyektda hozir bo'lishini ta'minlash (jadval texnik nazoratchi va loyiha-chining vakili tomonidan imzolanadi).
- Loyerha-smeta hujjatlariga kiritilgan barcha o'zgarishlarni Buyurtmachi bilan kelishish.
- Loyerha-smeta hujjatlariga tuzatish kiritish bilan bog'liq barcha xarajatlar, qo'shimcha kelishuv tuzmagan holda, loyiha-chi hisobidan amalga oshiriladi (Loyerha-smeta hujjatlariga tuzatish kiritish ehtiyoji loyiha-chi tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar (kamchiliklar) munosabati bilan sodir bo'lgan hollarda);
- Ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlari bo'yicha ekspertiza organlari tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni 5 kun muddatda bartaraf etadi.
- Loyerha-chi tomonidan smeta xujjatlari tayyorlangandan va tegishli ekspertiza organlaridan ijobjiy hulosa olinganidan so'ng buyurtmachiga quyidagi tartibda topshiradi;
- Loyerha smeta xujjatlari va chizmalari – 3 nusxada,
- Shu bilan birga, loyiha-chi u tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha ijobjiy ekspertiza hulosasi olinganidan so'ng shartnomaning 2022 yilda bajariladigan ishlar qiyamatidan 70%ni miqdorida hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasini taqdim etadi.
- Loyerha-chi barcha ishlarni muddatidan oldin bajarishga haqli. Bunday holda, Buyurtmachi ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ishlarni muddatidan oldin qabul qilish va to'lovni amalga oshirish huquqiga ega.

5.2. Loyerha-chi alohida ish hajmlari yoki ish turlarini bajarish uchun yordamchi pudratchilarni jalg qilishi mumkin.
 5.3. Mualliflik nazorati tugallangandan so'ng yakuniy bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-fakturani rasmiylashtiradi. Mualliflik nazoratini amalga oshirish obyektni foydalanishga topshirish to'g'risidagi davlat qabul komissiyasi dalolatnomasining loyiha-chi tomonidan imzolangan sanadan boshlab tugallangan hisoblanadi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1. O'z zimmasiga olgan majburiyatini bajarmagan yoki tegishli tarzda bajarmagan tomon mulkiy javobgar hisoblanadi va boshqa tomonning barcha zararlarini O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga va ushbu shartnomaga muvofiq qoplaydi.

6.2. Ishlarni yoki ularning alohida bosqichlarini bajarish muddatlarini buzganlik uchun loyiha-chi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatni bajarilmagan qismi qiyamatining 0,1%ni miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori bajarilmagan ishlar qiyamatining 50%idan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Agar ushbu shartnoma shartlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, Buyurtmachining aybi bilan moliyalashtirish o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi uchun, u har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov miqdorining 0,1% miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan to'lov miqdorining 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Tegishli moliya organlari tomonidan pul mablag'larini kechiktirib berish bilan bog'liq bo'lsa, Buyurtmachi mazkur shartnomaning 2.3.-bandi shartlariga muvofiq to'lovni kechikkanligi uchun javobgar emas. Buyurtmachi loyiha-chining rozilgisiz unga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobidan penya va jarimalar summalarini ushlab qolishga haqli.

6.5. Kelishilgan kun va vaqtida obyektda loyiha-chi vakili hozir bo'lmasligi aniqlangan holatda, loyiha-chi har bir shunday majburiyatning buzilishi uchun Buyurtmachiga shartnoma miqdorining 5%ni miqdorida jarima to'lash majburiyatini oladi. Loyerha-chi vakilining yo'qligi holati Buyurtmachi texnik nazoratchisi va obyektda ishlayotgan qurilish pudrat tashkilotining kamida 3 nafar xodimi tomonidan imzolanadigan dalolatnomasi asosida tasdiqlanadi. Jarima miqdori loyiha-chi tomonidan Buyurtmachidan talabnomasi olingan kundan boshlab 7 kalendar kun ichida to'lab berilishi lozim.

6.6. Shartnoma manfaatdor tomon tomonidan faqat shartnoma bo'yicha mulkiy va nomulkiy xususiyatdagi barcha masalalarni hal qilgandan so'ng, boshqa tomonni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish orqali bekor qilinishi mumkin. Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgarishlar, qo'shimchalar tomonlarning kelishuvni bo'yicha yozma ravishda amalga oshiriladi, aks holda bu o'zgarishlar, qo'shimchalar haqiqiy hisoblanmaydi.

6.7. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish, shuningdek etkazilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

VII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

7.1. Ushbu shartnoma ikki tomonlarga imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.
 7.2. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugashi tomonlarni uning bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VIII. FAVQULODDA VAZIYATLAR.

8.1. Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan favqulodda holatlar (yong'in, suv toshqini, zilzila, tabiiy ofatlar, falokat, portlashlar va boshqalar) natijasida tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

IX. BOSHQA SHARTLAR.


9.1. Soliqqa tortish bilan bog'liq o'zgarishlar ro'y berganda tomonlar ushbu shartnomaga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni bilantartibga solinadi.

9.2. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, uning har bir nusxasi bir xil qonuniy kuchga ega. Quyidagi ilovalar shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi:

1-Ilova: Taqvim rejasi.

2-Ilova: Loyiha-smeta hujjatlari qiymati

X. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI

BUYURTMACHI	LOYIHACHI
<p>"Oxangaron-Dalvarzin Irrigatsiya tizimi boshqarmasi"</p> <p>Manzil: Piskent tumani G'oliblar ko'chasi 1uy Tel: +99870 7007687 Faks: +99870 7007687 x/r: 10002186027250704242170001 Bank nomi: Mark.B.Tosh sh.Bosh b.XKKM INN: 207290310 OKED: 01613 MFO: 00014</p> <p>Direktor: Sh. To'xtamishov (Jazo) M.O.</p> 	<p>"INNOVATIVE-PROEKT" MCHJ</p> <p>Manzil: Toshkent sh. Bektemir t. Rohat ko'chasi, 13-uy Tel: +99899-878-22-76 x/r: 20 208 000 605 077 077 001 Bank nomi: «Ipotekabank» Mirobod tumani filiali INN: 306 418 226, OKED: 41100, MFO: 00420</p> <p>Direktor: A.Amanbaev</p> 

Wuzum qo'shish A. I. Raxmatov

2022-yil “10” noyabrdagi
loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish
va mualliflik nazoratini yuritish uchun 7-sonli
shartnomaga 1-sonli ilova

No	Ishlar va xizmatlar nomlari	Boshlanishi	Oxiri
1	Loyiha-qidiruv ishlari	10.11.2022y	30.11.2022y
2	Loyihaning grafik qismini ishlab chiqish	01.12.2022y.	05.12.2022y.
3	Smeta qismini tayyorlash	06.12.2022y.	10.12.2022y.
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			
11			
12			
13			
14			
15			

Loyiha bosh muhandisi



2022-yil “10” noyabrdagi
 loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish
 va mualliflik nazoratini yuritish uchun 7-sonli
 shartnomaga 2-sonli ilova

Loyihaning nomlanishi: ““Kultepa RYU 3-4, “Madaniyat R-5”, “Eski yordam”, “TCHQK”, “Yulduz RS-2”,
 “Tariqchi RS-1” kanallari bo'yicha ta'mirlash-tiklash”” Loyiha tadqiqot ishlari uchun

SMETA HISOBI

Nº t/b	Ob'ektning xususiyatlari, tuzilmalari va ish turi.	Murakkablik toifasini aniqlashasosi	Xarajatlar hisob-kitobi	Qiymati mingso'm.
1	2	3	4	5
1.	Loyiha-qidiruv ishlari			30 mln.so'm
2.	Loyihaning grafik qismini ishlab chiqish			15 mln.som
3.	Smeta qismini tayyorlash			7 mln.som
4.				
5.				
	Jami QQS siz			52 mln.so'm

Jami: QQS siz 52 000 000 so'm

Loyiha bosh muhandisi



«ТАСДИҚЛАЙМАН»



Охангарон-Далварзин ирригация тизими бошқармасыга қарашли “Култепа” РЮ 3-4, “Маданият” Р-5, “Эски ёрдам”, “ТЧҚҚ”, “Йўлдош” РС-2, “Тариқчи” РС-1 каналлари бўйича таъмирлаш-тиклари ишлари бўйича тузилган
НУҚСОН ДАЛОЛАТНОМАСИ

2022 йил 12 сенгиз

Пискент тумани

Охангарон-Далварзин ирригация тизими бошқармаси бошлиқ ўринбосари К.Ўринбоев, ирригация тизимлари ва гидротехника иншоотларидан фойдаланиш сектори шўба бошлиги Ш.Дўсматов, кадрлар бўйича бош мутахассис Ж.Исройлхонов, сув ресурслари баланси гидрометрия сектори шўба бошлиги Ж.Фозилхонов, механик Ш.Умаров, “Култепа” РЮ 3-4, “Маданият” Р-5, “Эски ёрдам”, “ТЧҚҚ”, “Йўлдош” РС-2, “Тариқчи” РС-1 каналлари жами 29,0 км ни таъмирлаш-тиклари ишлари бўйича ўрганиб чиқилди ва қуидагилар аниқланди.

“Култепа РЮ 3-4” канали тармоқларининг умумий узунлиги 3.0 км бўлиб, хизмат кўрсатадиган худуддаги сугориладиган ерлари 3098 гектарни ташкил этади.

“Маданият Р-5” канали тармоқларининг умумий узунлиги 1.0 км бўлиб, хизмат кўрсатадиган худуддаги сугориладиган ерлари 1100 гектарни ташкил этади.

“Эски Ёрдам” канали тармоқларининг умумий узунлиги 11.2 км бўлиб, хизмат кўрсатадиган худуддаги сугориладиган ерлари 1205 гектарни ташкил этади.

“ТЧҚҚ” канали тармоқларининг умумий узунлиги 8.8 км бўлиб, хизмат кўрсатадиган худуддаги сугориладиган ерлари 1495 гектарни ташкил этади.

“Йўлдош” РС-2 канали тармоқларининг умумий узунлиги 2.0 км бўлиб, хизмат кўрсатадиган худуддаги сугориладиган ерлари 367 гектарни ташкил этади.

“Тариқчи” РС-1 канали тармоқларининг умумий узунлиги 0.6 км бўлиб, хизмат кўрсатадиган худуддаги сугориладиган ерлари 418 гектарни ташкил этади.

“Тариқчи” РС-1 канали тармоқларининг умумий узунлиги 2.4 км бўлиб, хизмат кўрсатадиган худуддаги сугориладиган ерлари 345 гектарни ташкил этади.

Ушбу худудлардаги каналларининг ўзанларида асосан қамиш ва хар хил бегона ўтлар ўсган хамда лойқа йиғилганидан сув оқими пасайган. Канал тармоқларининг ишлаш қобилияти пасайиб, худуддаги суғориладиган майдонлар ёмонлашувига олиб келмокда.

Бугунги кунда юқоридаги каналларни таъмирлаш тиклаш ишлари амалгашибирлган-дан сўнг каналларни ишлаш қобилияти яхшиланиб, унинг сув ўтказиш қобилияти тикланади хамда қишлоқ хўжалиги экинлари пахта ва ғалла хосилдорлиги сезиларли даражада ошиши яхшиланади.

Юқоридагиларни инобатга олиб, “Култепа” РЮ 3-4, “Маданият” Р-5, “Эски ёрдам”, “ТЧҚҚ”, “Йўлдош” РС-2, “Тариқчи” РС-1 каналларинилойиха-қидирув натижалари бўйича тайёрланадиган лойиха-смета хужжатларига асосан 2022 йилда таъмирлаш тиклаш мақсадга мувофиқ.

К. Ўринбоев

Бошқарма бошлиғи ўринбосари

Ш.Дўсматов

Иrrigation тизимлари ва гидротехника
иншоотларидан фойдаланиш сектори шўба бошлиғи

Ж.Фозилхонов

Сув ресурслари баланси гидрометрия сектори
шўба бошлиғи бошлиғи

Ш.Умаров

Механик

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 170138 на приобретение “Kultepa RYU 3-4, “Madaniyat R-5”, “Eski yordam”, “TCHQK”, “Yuldosh RS-2”, “Tariqchi RS-1” kanallari bo’yicha ta’mirlash-tiklash”

Способ проведения электронный

Дата 02.11.2022

Время рассмотрения 02.11.2022 13:19

Закупочная комиссия Охангарон Далварзин Ирригация тизими башкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	O'RINBOYEV QODIRJON G'OFUR O'G'LI	Фойдаланиш ва таъмирлашни Ташқил этиш бўйича мухандис	Ohangaron-Dalvarzin Irrigatsiya tizmi boshqarmasi
Секретарь комиссии	XAKIMJONOV SARDOR BAXTIYOR O'G'LI	Бош мутахассис	Ohangaron-Dalvarzin Irrigatsiya tizmi boshqarmasi
Член комиссии	OXUNJONOVA FERUZA ABDIJAMILOVNA	материальный бухгалтер	Ohangaron-Dalvarzin Irrigatsiya tizmi boshqarmasi
Член комиссии	DO'SMATOV SHAVKAT SHOMUROTOVICH	Бўлим бошлиғи	Ohangaron-Dalvarzin Irrigatsiya tizmi boshqarmasi
Член комиссии	FOZILXONOV JAXONGIR SAYDIMAXMUDXONOVICH	Бўлим бошлиғи (сувхўжалигида)	Ohangaron-Dalvarzin Irrigatsiya tizmi boshqarmasi
Член комиссии	ERGASHEVA SURAYYO XAMIDULLAYEVNA	Бош бухгалтер	Ohangaron-Dalvarzin Irrigatsiya tizmi boshqarmasi

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объятиению на специальном информационном портале от 02.11.2022 года № лота 170138.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по разработке рабочего проекта
Подробное описание	“Kultepa RYU 3-4, “Madaniyat R-5”, “Eski yordam”, “TCHQK”, “Yuldosh RS-2”, “Tariqchi RS-1” kanallari bo’yicha ta’mirlash-tiklash” obyektiga loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, tegishli ekspertiza tashkilotining ijobil hulosasini olish va mualliflik nazoratini yuritish
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	56 500 000.00
Стартовая сумма	56 500 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Korrupsiya ko'inishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yichaARIZA

Тип: Текстовое значение

Описание: Korrupsiya ko'inishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yichaARIZA

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
INNOVATIVE-PROEKT MCHJ	20	20	20	Экспертная		
TOJIDDIN SUV LOYIHA MCHJ	20	56000000	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Умумий маэлумотлар бўлимига хужжатлар илова қилинмаган
IRRIGATION PROJECT MCHJ	20	20	20	Экспертная		
ГУП SUVLOYIXA	20	Korrupsiya ko'inishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yichaARIZA	20	Экспертная		

Критерий №2 Ishtirokchining Moliyaviy Ko'rsatkichlari

Тип: Текстовое значение

Описание: Shaklga keyingi 3 yildagi moliyaviy natijalar va buxgalteriya balanslari haqidagi hisobot ilova qilinadi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
INNOVATIVE-PROEKT MCHJ	20	20	20	Экспертная		
TOJIDDIN SUV LOYIHA MCHJ	20	56000000	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Умумий маэлумотлар бўлимига хужжатлар илова қилинмаган
IRRIGATION PROJECT MCHJ	20	20	20	Экспертная		
ГУП SUVLOYIXA	20	Ishtirokchining Moliyaviy Ko'rsatkichlari	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Талаб даражасида тақдим этилмаган

Критерий №3 KAFOLATXATI

Тип: Текстовое значение

Описание: KAFOLATXATI

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
INNOVATIVE-PROEKT MCHJ	20	20	20	Экспертная		
TOJIDDIN SUV LOYIHA MCHJ	20	56000000	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Умумий маэлумотлар бўлимига хужжатлар илова қилинмаган
IRRIGATION PROJECT MCHJ	20	20	20	Экспертная		
ГУП SUVLOYIXA	20	KAFOLATXATI	20	Экспертная		

Критерий №4 Eng yaxshi takliflarni tanlashishtirokchisihaqidaumumiyma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание: Loyiha-izlanish ishlarini, loyihani barcha bo'limlarini tayyorlovchi malakali muhandislar va mutaxassislar ro'xati va ularni malakasini tasdiqlovchi hujjat nushasi, shu kabi ishlarni bajarganligi to'g'ridagi tasdiqlovchi hujjatlar, elektron mehnat daftarchasidan nusxalar ilova qilinadi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
INNOVATIVE-PROEKT MCHJ	20	20	20	Экспертная		
TOJIDDIN SUV LOYIHA MCHJ	20	56000000	0	Экспертная	Дисквалифицирован	Умумий маэлумотлар бўлимига хужжатлар илова қилинмаган
IRRIGATION PROJECT MCHJ	20	20	10	Экспертная		
ГУП SUVLOYIXA	20	Eng yaxshi takliflarni tanlashishtirokchisihaqidaumumiyma'lumot	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
IRRIGATION PROJECT MCHJ	56 500 000.00	53 000 000.00 UZS	53 000 000.00	00.00	53 000 000.00	01.11.2022 10:40:16	19.62264
INNOVATIVE-PROEKT MCHJ	56 500 000.00	52 000 000.00 UZS	52 000 000.00	00.00	52 000 000.00	26.10.2022 09:58:18	20

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ГУП SUVLOYIXA	Не прошел	Не прошел	Не прошел
IRRIGATION PROJECT MCHJ	70	19.62264	89.62264
INNOVATIVE-PROEKT MCHJ	80	20	100
TOJIDDIN SUV LOYIHA MCHJ	Не прошел	Не прошел	Не прошел

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 170138 от 02.11.2022 года на приобретение “Kultepa RYU 3-4, “Madaniyat R-5”, “Eski yordam”, “TCHQK”, “Yulduz RS-2”, “Tariqchi RS-1” kanallari bo’yicha ta’mirlash-tiklash” определила победителем:

INNOVATIVE-PROEKT MCHJ
306418225

и резервный исполнитель: IRRIGATION PROJECT MCHJ (304774506)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	O'RINBOYEV QODIRJON G'OFUR O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	DO'SMATOV SHAVKAT SHOMUROTOVICH	Согласен	
Член комиссии	FOZILXONOV JAXONGIR SAYDIMAXMUDXONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

«TASDIQLAYMAN»

“Ohangaron-Dalvarzin” ITB boshlig’i
o’rinbosari, komissiya raisi



Q.O’rinboyev

2022 yil

“Kultepa RYU 3-4, “Madaniyat R-5”, “Eski yordam”, “TCHQK”, “Yuldashev RS-2”, “Tariqchi RS-1” kanallari bo’yicha ta’mirlash-tiklash” ishechi loyihasini ishlab chiquvchi va mualliflik nazoratini yurituvchi loyiha tashkilotini aniqlash bo’yicha tanlov komissiyasining

1. -sonli
YIG’ILISH BAYONNOMASI

2022 yil “8” noyabr

Toshkent shahri

“Ohangaron-Dalvarzin” ITBning 2022 yil 14 oktyabrdagi 35 i/ch-sonli buyrug’iga asosan tasdiqlangan idoraviy tanlov komissiyasi tarkibi:

Komissiya raisi:	Q.O’rinboyev	- “Ohangaron-Dalvarzin” ITB bo’shlig’i o’rinbosari
Komissiya a’zolari:	F.Oxunjonova	- Xisobchi
	Sh.Do’smatov	- Bo’lim boshlig’i
	J.Fozilxonov	- Bo’lim boshlig’i
	S.Ergasheva	- Bosh xisobchi
Komissiya kotibi:	S.Xakimjonov	- Foydalanish va ta’mirlashni tashkil etish bo’yicha muhandis (<i>ovozi berish huquqisiz</i>)

Yig’ilishni tanlov komissiyasi raisi Q.O’rinboyev olib bordi.

KUN TARTIBI:

1. “Kultepa RYU 3-4, “Madaniyat R-5”, “Eski yordam”, “TCHQK”, “Yuldashev RS-2”, “Tariqchi RS-1” kanallari bo’yicha ta’mirlash-tiklash” ishechi loyihasini ishlab chiqish va mualliflik nazoratini yuritish bo’yicha kelib tushgan e’tirozlarni ko’rib chiqish.

Komissiyaning 02-noyabrdagi etender-uzex.uz maxsus axborot potalida shakllantirilgan elektron bayoniga asosan ishtirokechilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o’rganib chiqib, tanlash natijalari e’lon qilinganligini aytib o’tdi.

Shuningdek, 170138-sonli lot bo’yicha O’RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g’risida”gi qonunning talablariga qat’iy rioya qilish bo’yicha tushuntirish berib o’tdi.

Xarid komissiyasi a'zolarida mazkur **170138**-sonli lot ishtirokchilari bilan affillanganlik hususiyatiga ega aloqalar mavjud emas.

Muhokamaga qo'yilgan masala yuzasidan 2 (ikki) ish kuni davomida "Tojiddin suv loyiha" MCHJ tomonidan e'tiroz kelib tushdi, komisa tomonidan ushbu e'tiroz o'rinsizligi va xaqiqatda "Tojiddin suv loyiha" MCHJ tomonidan tegishli hujjatlar umumiy bo'limga yuklanmaganligi tushuntirildi.

Shundan so'ng "Tojiddin suv loyiha" MCHJ tomonidan boshqa e'tiroz kelib tushmaganligi sababli eng yaxshi takliflarni tanlash tanlovi o'tkazilgan deb topildi.

Tanlashda qatnashgan tashkilotlar takliflari quyidagicha belgilangan:

1. "Irrigation Project" MCHJ – QQS siz 53 000 000 so'm.
2. "Innovative-Proekt" MCHJ – QQS siz 52 000 000 so'm.

Mazkur obyekt bo'yicha buyurtmachi tomonidan belgilangan boshlang'ich narx:

QQS siz - 56 500 000 so'm.

Komissiya qaroriga asosan "Kultepa RYU 3-4", "Madaniyat R-5", "Eski yordam", "TCHQK", "Yuldashev RS-2", "Tariqchi RS-1" kanallari bo'yicha ta'mirlash-tiklash" obyektinga ishchi loyihasini ishlab chiqish va mualliflik nazoratini yuritish bo'yicha eng maqbul taklifni bildirgan "Innovative-Proekt" MCHJni QQS siz 52 000 000 so'm, taklif narx bilan loyihalashtirish ishlarni 30 kun muddatda yakunlash sharti bilan tanlov g'olib deb topishni hamda zahira ishtirokchi sifatida "Irrigation Project" MCHJni 53 000 000 so'm taklif narx bilan ishlarni 30 kun muddatda yakunlash sharti bilan zahiradagi ikkinchi g'olib tashkilot deb topildi.

**Eng yaxshi takliflarni tanlab olish bo'yicha xarid komissiyasi
QAROR QILADI:**

1. "Kultepa RYU 3-4", "Madaniyat R-5", "Eski yordam", "TCHQK", "Yuldashev RS-2", "Tariqchi RS-1" kanallari bo'yicha ta'mirlash-tiklash" obyektinga ishchi loyihasini ishlab chiqish va mualliflik nazoratini yuritish bo'yicha "Innovative-Proekt" MCHJ 52 000 000 so'm taklif narx bilan loyihalashtirish ishlarni 30 kun muddatda yakunlash sharti bilan g'olib tashkilot deb topilsin.
2. Zahira ishtirokchi sifatida o'z taklifini bergan "Irrigation Project" MCHJ 53 000 000 so'm taklif narx bilan ishlarni 45 kun muddatda yakunlash sharti bilan zahiradagi ikkinchi g'olib deb topilsin.
3. Tanlov g'olib "Innovative-Proekt" MCHJ bilan "Ohangaron-Dalvarzin" ITB o'rnatilgan tariibda shartnomaga tuzish vazifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari:

F.Oxunjonova

J.Fozilxonov




Sh.Do'smatov



S.Ergasheva



Komissiya kotibi



S.Xakimjonov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 17 - may

294-10-0-Q/22

Toshkent viloyati hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10- maydag'i 243- sonli qarori ijrosi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydag'i "2022 yilda kutilayotgan suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan ishonchli ta'minlashga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 243-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda 2022-yil yozgi sug'orish mavsumida kutilayotgan suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun suv bilan ishonchli ta'minlash hamda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 6 va 25-moddalariga asosan, qaror qilaman:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10- maydag'i 243-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Suv xo'jaligi vazirligi hamda viloyatlar hokimliklarining 2022-yilda viloyatlar va tumanlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun suv olish limitlari to'g'risidagi takliflari 1-ilovaga muvofiq ma'qullanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
3. 2022-yil yozgi sug'orish mavsumida kutilayotgan suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish hamda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish tadbirlarini muvofiqlashtirish bo'yicha viloyat ishchi guruhining (keyingi o'rnlarda — ishchi guruhi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Quyidagilar ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilansin:

suv omborlaridagi suv resurslaridan foydalanishni to'liq nazoratga olish, ayniqsa, yirik suv omborlaridan suv chiqarish va nasos stansiyalaridan foydalanishni qat'iy ravishda viloyatlar hokimlarining aniq hisob-kitoblariga asoslangan talabnomalar bo'yicha amalga oshirish;

mavjud sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining mavsumga shayligini ta’minlash bilan bog‘liq barcha tadbirlarning bajarilishi bo‘yicha qat’iy monitoring olib borish tizimini yo‘lga qo‘yish;

ekin maydonlarining mavjud infratuzilmasini hisobga olgan holda, elektr energiyasi va suv bilan uzluksiz ta’minlash imkoniyatidan kelib chiqib, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarining “bir kanal — bir tizim” tamoyili asosida joylashtirilishiga e’tibor qaratish;

sug‘orish mavsumi davomida har o‘n kunda suv resurslaridan samarali foydalanish holatini tanqidiy o‘rganish hamda bu borada mutasaddilar va hududlar rahbarlarining hisobotlarini eshitib borish.

Ishchi guruh (X.Niyozov) ushbu vazifalarni tezkor va samarali bajarish maqsadida bir hafta muddatda “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida ishchi guruhining shtabini tashkil qilsin.

5. Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rribbosari (X.Niyozov) va tumanlar hokimliklari kutilayotgan suv tanqisligining salbiy ta’sirini yumshatish, suv resurslaridan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish bo‘yicha tumanlarda hududiy ishchi guruhrar tarkibi uch kun muddatda tasdiqlanishini ta’minlasin.

Belgilansinki, tumanda va har bir sektor hududida sug‘orish shtablari tashkil etilib, ular tomonidan suv tanqisligining salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, suv resurslaridan samarali foydalanishni nazorat qilish, suv taqsimoti va hisob-kitobini yuritish, suvchilarga dalada zarur sharoit yaratish hamda ish haqlarini o‘z vaqtida berish va tungi sug‘orish ishlari muvofiqlashtirib boriladi.

6. 2022-yilda amalga oshiriladigan irrigatsiya tizimlari va ulardagi gidrotexnika inshootlarini, nasos agregatlari va sug‘orish quduqlarini ta’mirlash-tiklash va qurish ishlari rejasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rribbosari (X.Niyozov), “Chirchiq-Ohangaron” ITHB (B.Qurbanov), viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (SH.Do‘sbekov) hamda tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

o‘n kun muddatda ushbu qarorga 1-ilovadan kelib chiqib, har bir irrigatsiya tizimi kanali va sug‘orish tarmog‘i, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar, fermer xo‘jaliklari va boshqa suv iste’molchilari bo‘yicha suv olish limitlarini tasdiqlab, tegishli shartnomalar rasmiylashtirilishini hamda shartnomalar reyestrini suvdan

foydalanish va suv iste'moli bo'yicha belgilangan tartibda nazorat qilib borish uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining hududiy boshqarmalari va tumanlar bo'limlariga berilishini;

suv tanqisligi sharoitida xarid qilingan ko'chma dizel va boshqa turdag'i nasos agregatlarini ikki hafta muddatda xatlovdan o'tkazib, qo'shimcha suv yetkazib berish maqsadida ularning kollektor-drenaj tarmoqlariga o'rnatilishini ta'minlasin.

8. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Moliya vazirligiga hamda viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ushbu qarorga 3-ilovada keltirilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan mablag'larning:

bir hafta muddatda Suv xo'jaligi vazirligiga suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish va suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etishga ajratilgan mablag'larning o'zlashtirilishidan kelib chiqib, davlat budgeti xarajatlarining maqbullashtirilgan qismi hisobidan tiklab berish;

asoslovchi hisob-kitoblar taqdim etilgan holda davlat budgeti xarajatlarining maqbullashtirilgan, shu jumladan, Suv xo'jaligi vazirligiga ajratilgan mablag'larning maqbullashtirilgan qismidan shakllangan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish vazifasi yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan nasos stansiyalari va vertikal sug'orish quduqlarini ishlatalish uchun 2022-yilda sarflanadigan elektr energiyasi miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki:

Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rribbosari (X.Niyozov), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (O.Xolikulov), "Chirchiq-Ohangaron" ITHB (B.Qurbanov) 2022-yil uchun belgilangan elektr energiyasi miqdorlarining amaldagi iste'molidan kelib chiqib, respublika budgetida elektr energiyasi uchun ko'zda tutilgan mablag'ning qayta taqsimlash hamda mahalliy budgetlarda suv xo'jaligi tizimidagi nasos stansiyalarining elektr energiyasi xarajatlarini qoplash uchun ko'zda tutilgan mablag'lar va mahalliy budgetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlaydi;

Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rribbosari (X.Niyozov) nasos stansiyalari va vertikal sug'orish quduqlarining belgilangan elektr energiyasi miqdori hamda unga ajratilgan mablag'lar va tasdiqlangan suv olish limitlari doirasida ishlatalishini ta'minlaydi;

“Chirchiq-Ohangaron” ITHB (B.Qurbonov) nasos stansiyalari va vertikal sug‘orish quduqlarini texnik soz holatda bo‘lishi va samarali ishlashini tashkil etadi hamda har oyda viloyat hokimligiga axborot kiritadi;

“Toshkent hududiy elektr tarmoqlari” AJ (N.Batirova) 2022-yil uchun belgilangan elektr energiyasi miqdorlarini ajratish hamda nasos stansiyalari va vertikal sug‘orish quduqlarini belgilangan rejim asosida uzlucksiz elektr energiyasi bilan ta’minlaydi.

10. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining viloyat boshqarmasi (S.Sadikov) suvdan foydalanish va suv iste’moli tartibiga, shuningdek, suv olish limitlariga qat’iy rioya etilishi bo‘yicha tizimli nazorat o‘rnatsin hamda bu borada qonunbuzilish holatlariga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko‘rib, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda viloyat hokimligiga axborot berib borsin.

11. “Chirchiq-Ohangaron” ITHB (B.Qurbonov) viloyat sug‘orish shtabini tashkil qilib, ushbu qarorda belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli bajarilishini ta’minalash bo‘yicha qat’iy nazorat o‘rnatsin hamda bu borada sustkashlikka yo‘l qo‘ygan barcha bo‘g‘indagi rahbarlar va mas’ullarga nisbatan qat’iy choralar ko‘rish to‘g‘risida har oyda viloyat hokimligiga taklif kiritib borsin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Niyozov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b.



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 17 maydag'i
294-10-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

2022-yilda Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun

SUV OLISh LIMITLARI

mln kub m

Tuman nomi	Jami suv olish limiti	shu jumladan, oylar bo'yicha					
		aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr
Oqqo'rg'on	161,6	22,5	24,8	28,8	41,4	29,3	14,8
Ohangaron	133,2	21,0	26,1	22,8	24,4	19,7	19,1
Bekobod	465,2	60,6	71,8	81,2	107,8	84,3	59,6
Bo'stonliq	76,6	8,5	11,5	13,9	16,5	13,5	12,7
Bo'ka	200,3	28,2	32,7	34,7	48,5	35,2	21,0
Quyichirchiq	224,4	32,5	38,2	38,8	51,5	38,5	24,9
Zangiota	74,5	5,9	11,4	15,2	16,0	12,8	13,2
Toshkent	76,2	8,4	12,7	14,5	14,1	11,9	14,6
Yuqorichirchiq	141,2	26,1	30,5	22,5	26,9	20,1	15,1
Qibray	126,7	12,9	19,8	24,2	25,5	21,4	22,9
Parkent	80,8	7,6	9,7	14,0	19,7	16,1	13,7
Piskent	130,0	17,8	22,9	22,6	30,0	22,3	14,4
O'rtachirchiq	195,2	31,2	36,2	32,6	43,0	31,6	20,6
Chinoz	148,7	23,0	26,7	25,5	33,5	24,5	15,5
Yangiyo'l	160,4	23,0	31,1	25,9	28,0	25,1	27,3
JAMI	2 395,1	329,2	406,1	417,2	526,8	406,3	309,5

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 17 maydagi
294-10-0-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**2022-yil yozgi sug‘orish mavsumida kutilayotgan suv tanqisligining salbiy ta’sirini yumshatish va
mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish tadbirlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat ishchi
guruhi
TARKIBI**

- | | |
|------------------|---|
| 1. X. Niyozov | - Toshkent viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinnbosari, <i>Viloyat ishchi guruhi rahbari</i> |
| 2. B.Qurbanov | - “Chirchiq-Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i, <i>Viloyat ishchi guruhi rahbari o‘rinnbosari</i> |
| 3. Sh.Do‘srbekov | - Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i |
| 4. O.Xalikulov | - Viloyat moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i |
| 5. S.Sodiqov | - Agrosanoat majmui nazorat qilish inspeksiyasi, Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i |
| 6. N.Raximov | - Toshkent viloyati Gidrometeorologiya boshqarmasi boshlig‘i v.b. |
| 7. N.Botirova | - “Toshkent hududiy Elektr tarmoqlari korxonasi” AJ |
| 8. R.Mamatqulov | - Agrobank ATB Toshkent viloyat boshqarmasi boshlig‘i |
| 9. M.Menlibaev | - “Davsuvxo‘jaliknazorat” davlat inspeksiyasi, Toshkent viloyati inspektori |
| 10. J.Malikov | - Viloyat hokimligi qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha kotibiyati etakchi mutaxassis, <i>Viloyat ishchi guruhi kotibi</i> |

Izoh: *Viloyat ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tganda uning o‘rniga ushbu lavozimiga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarini bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs kiritiladi*

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 17 maydag'i
294-10-0-Q/22-son qaroriga
3-ilova

2022 yilda kutilayotgan suv tanqisligining salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida Toshkent viloyatida respublika budjeti va viloyatlarda mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan suv xo'jaligi obyektlarida ta'mirlash ishlaringin

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

T/p	Hududlar nomi	Jami ajratiladigan mablag'lar, mln.so'm	<i>IIIu жумлайдан</i>											
			Sug'orish tarmoqlarini tozalash		Gidrotexnik inshootlarni ta'mirlash		Sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish		Nasos agregatlari sotib olish		Nasos agregatlarini ta'mirlash		Sug'orish quduqlari qurish	
uzunligi, km	talab etiladigan mablag', mln.so'm	soni, dona	talab etiladigan mablag', mln.so'm	uzunligi, km	talab etiladigan mablag', mln.so'm	soni, dona	talab etiladigan mablag', mln.so'm	soni, dona	talab etiladigan mablag', mln.so'm	soni, dona	talab etiladigan mablag', mln.so'm	soni, dona	talab etiladigan mablag', mln.so'm	soni, dona
1	Zangiota	507	11	298	11	176				1	33			
2	Qibray	758	17	486	18	271								
3	Bo'stonliq	664	6	176	6	115		1	310	2	62			
4	Parkent	320	5	145	5	99				2	76			
5	Chinoz	1342	18	494	18	308		1	32	2	58	1	450	
6	Yuqorichirchiq	811	19	521	19	289								
7	Yangiyo'l	1402	29	823	20	303		5	208	2	68			
8	Ohangaron	624	12	349	13	202				2	73			
9	Bo'ka	1283	18	498	18	277				2	58	1	450	

10	Piskent	752	16	451	16	254			1	20	1	28		
11	Toshkent	498	11	314	11	184								
12	Oqqo'rg'on	592	13	376	14	216								
13	Bekobod	1160	15	423	15	257			1	30			1	450
14	O'rtachirchiq	539	12	341	12	198								
Jami		11252	203	5696	196	3150			9	600	14	456	3	1350

Toshkent viloyat hokimining
2022 yil 17 maydag'i
294-10-0-Q/22-son qaroriga
4-ilova

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan nasos stansiyalari va vertikal sug'orish quduqlarini ishlatalish uchun 2022-yilda sarflanadigan elektr energiyasi

MIQDORI

Tashkilot nomi	2022-yil bo'yicha jami		shundan:							
			I chorak		II chorak		III chorak		IV chorak	
	mln kVt.s	mln so'm	mln kVt.s	mln so'm	mln kVt.s	mln so'm	mln kVt.s	mln so'm	mln kVt.s	mln so'm
Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	69,0	31 050,0	3,4	1 530,0	26,9	12 105,0	32,3	14 535,0	6,4	2 880,0

Izoh. 1) Ob-havo sharoiti va mavjud suv miqdorlaridan kelib chiqib, Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ushbu elektr energiyasi miqdorlariga belgilangan tartibda Energetika vazirligi bilan kelishilgan holda tegishli o'zgartirish kiritilishi mumkin;

2) Elektr energiyasi mablag'lari tarif narxlariga qarab o'zgarishi mumkin.